UO‘K: **338.48:004.9(575.1)**

Kadirova Shafoat Xabibulloyevna
Buxoro davlat universiteti «Turizm va mehmonxona xo‘jaligi» kafedrasi katta o‘qituvchisi
Email: shafoatkadirova@gmail.com
ORCID: 0000-0001-7585-9555

MILLIY RAQAMLI TURISTIK XAB: DXSh ASOSIDAGI NEYTRAL INTEGRATSIYA MODELI VA UNING TURIZM KO‘RSATKICHLARIGA TA’SIRINING 2030-YILGACHA SSENARIYLI BAHOSI

Annotatsiya. Maqolada turizmdagi raqamli infratuzilmaning milliy bo‘g‘inini tashkil etish masalasi tadqiq etilgan. VMQ-820-son qarorga ko‘ra Milliy turizm yagona platformasi bir vaqtda davlat axborot tizimlariga kirish nuqtasi va bron hamda to‘lovni birlashtiruvchi savdo vitrinasi sifatida loyihalangani xususiy onlayn turoperatorlar bilan manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltirishi ko‘rsatilgan. Integratsiya qatlamini tashkil etishning besh huquqiy varianti ko‘p mezonli baholanib, O‘zbekiston sharoiti uchun institutsional dizayn - «Milliy raqamli turistik xab» taklif etilgan: u davlatning turizmga oid raqamli xizmatlari va ma’lumotlarini bozor platformalari bilan umumiy standartlar orqali bog‘laydigan, o‘zi bitim tuzmaydigan va komissiya olmaydigan, barcha ishtirokchilarga kamsitishsiz kirishni ta’minlaydigan integratsiya infratuzilmasidir. Xabning vazifalari, ma’lumotlar boshqaruvi va neytrallik kafolatlari, DXSh shaklidagi moliyalashtirish sxemasi (2026–2030-yillarda 25,05 mln AQSh dollari) hamda natijadorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan. Raqamli infratuzilmani ssenariy omili sifatida kirituvchi illyustrativ prognozga ko‘ra, 2030-yilda xorijiy turistlar soni 19,9-21,1 mln kishi, turistik xizmatlar eksporti 11,50-12,57 mlrd dollar bo‘lishi mumkin; bazaviy va inersion ssenariylar farqi (0,49 mln turist; 0,42 mlrd dollar) farazlarga, avvalo so‘nish koeffitsiyenti va elastikliklarga sezgir. Xab umumiy shartli ta’sirning 8-12 foizini ta’minlaganda ham o‘z xarajatlarini qoplaydi.

Kalit so‘zlar: raqamli turizm infratuzilmasi, milliy raqamli turistik xab, davlat-xususiy sheriklik, neytrallik, raqamli jamoat infratuzilmasi, onlayn turoperator, ssenariyli prognoz, turistik xizmatlar eksporti.

Аннотация. В статье исследуется организация национального уровня цифровой туристской инфраструктуры. Показано, что проектирование Единой национальной туристской платформы (постановление Кабинета Министров № 820) одновременно как точки доступа к государственным информационным системам и как торговой витрины, объединяющей бронирование и оплату, порождает конфликт интересов с частными онлайн-туроператорами. На основе многокритериальной оценки пяти правовых вариантов предложен институциональный дизайн для условий Узбекистана - национальный цифровой туристский хаб: интеграционная инфраструктура, связывающая государственные цифровые сервисы и данные в сфере туризма с рыночными платформами через общие стандарты, не совершающая собственных сделок, не взимающая комиссий и обеспечивающая недискриминационный доступ всем участникам. Разработаны функции хаба, правила управления данными и гарантии нейтральности, схема финансирования в форме ГЧП (25,05 млн долл. США в 2026-2030 гг.) и показатели результативности. Иллюстративный сценарный прогноз, учитывающий цифровую инфраструктуру как сценарный фактор, даёт на 2030 г. 19,9-21,1 млн иностранных туристов и 11,50-12,57 млрд долл. экспорта туристских услуг; разница базового и инерционного сценариев (0,49 млн туристов; 0,42 млрд долл.) чувствительна к допущениям, прежде всего к коэффициенту затухания и эластичностям. Хаб окупается, даже если обеспечивает лишь 8-12 % совокупного условного эффекта.

Ключевые слова: цифровая туристская инфраструктура, национальный цифровой туристский хаб, государственно-частное партнёрство, нейтральность, цифровая общественная инфраструктура, онлайн-туроператор, сценарный прогноз, экспорт туристских услуг.

Abstract. The article examines how the national level of digital tourism infrastructure should be organised. It shows that designing the Unified National Tourism Platform (Cabinet of Ministers Resolution No. 820) both as a gateway to government information systems and as a sales storefront that combines booking and payment creates a conflict of interest with private online tour operators. Based on a multi-criteria assessment of five legal options, the paper proposes an institutional design for Uzbekistan - the National Digital Tourism Hub: an integration infrastructure that links government digital services and data in tourism with market platforms through common standards, conducts no transactions of its own, charges no commission and gives all participants non-discriminatory access. The hub's functions, data governance rules and neutrality safeguards, a PPP financing scheme (USD 25.05 million in 2026-2030) and key performance indicators are developed. An illustrative scenario forecast that treats digital infrastructure as a scenario factor yields 19.9-21.1 million foreign tourists and USD 11.50-12.57 billion of travel exports in 2030; the gap between the baseline and inertial scenarios (0.49 million tourists; USD 0.42 billion) is sensitive to the assumptions, above all to the damping coefficient and the elasticities. The hub pays for itself even if it accounts for only 8-12% of the total conditional effect.

Keywords: digital tourism infrastructure, national digital tourism hub, public-private partnership, neutrality, digital public infrastructure, online tour operator, scenario forecast, travel exports.

KIRISH

O‘zbekistonga keluvchi chet ellik sayyohlar oqimi so‘nggi yillarda keskin ko‘paydi. 2025-yilda ularning soni 11,7 mln kishiga yetdi [1], to‘lov balansidagi «Safarlar» moddasi bo‘yicha eksport 4 880,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi [2], 2026-yilning dastlabki to‘qqiz oyida esa oqim yana 20,4 foizga oshib, 10,3 mln kishini qamradi [3]. PQ-348-son qarorda 2030-yilda yiliga 20 mln chet ellik turist qabul qilish vazifasi belgilangan [4].

Raqamli transformatsiya bu sur’atga yetisholmayapti: hududiy tadqiqotimiz natijasiga ko‘ra, raqamli vositalarni qo‘llovchi turoperatorlar 88 foizni tashkil etgani holda, ular daromadida internet-savdo hissasi 11,5 foizdan oshmaydi [5]. To‘siqlarning bir qismini firmalarning o‘zi yengib o‘ta olmaydi – ekspertlar tizimlar o‘rtasidagi integratsiya yetishmasligini eng ko‘p qayd etilgan sabablar qatorida ko‘rsatgan, hududiy turizm statistikasi esa yiliga bir marta chiqadi. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi raqamli infratuzilmani, jumladan turistik joylarni internet bilan ta’minlashni ko‘zda tutadi [6]. Vazirlar Mahkamasi 2024-yil dekabrida tashkil etgan Milliy turizm yagona platformasi (keyingi o‘rinlarda – yagona platforma) bilet sotish, bronlash, turoperator va gid xizmatlari hamda to‘lov qabul qilishni bir joyda jamlashi kerak [7]; PF-87 sohadagi davlat elektron tizimlarini aynan shu platforma atrofida rivojlantirishni [8], PQ-348 esa platforma va uning mobil ilovasini 2026-yilning 1-iyulidan ishga tushirishni talab qiladi [4].

Demak, yagona platforma davlat tizimlariga kirish eshigi va bron hamda to‘lov qabul qiluvchi savdo maydonchasi sifatida bir yo‘la loyihalangan. Davlat ma’lumotlaridan imtiyozli foydalanadigan sotuvchi paydo bo‘lishi uni xususiy onlayn turoperatorlarning raqobatchisiga aylantiradi. Muammoning ikkinchi tomoni - tez-tez yangilanayotgan rasmiy mo‘ljallar hisobida raqamli infratuzilma o‘sish omili sifatida ko‘rinmaydi, shuning uchun unga sarflanadigan mablag‘ni kutilgan natija bilan solishtirib bo‘lmaydi.

Maqsad – turizmdagi raqamli infratuzilmaning milliy bo‘g‘ini uchun integratsiya qatlamining institutsional modelini asoslash va uning sohaga mumkin bo‘lgan ta’sirini 2030-yilgacha muqobil ssenariylarda baholash. Ilmiy yangilik ikki natijada ifodalanadi: birinchidan, O‘zbekiston uchun integratsiya qatlamining institutsional dizayni - Milliy raqamli turistik xab - besh huquqiy variantni ko‘p mezonli solishtirish asosida ishlab chiqilgan va uning ta’rifi, vazifalari, ma’lumotlar boshqaruvi, neytrallik kafolatlari, DXSh shaklidagi moliyalashtirish sxemasi hamda samaradorlik indikatorlari asoslangan; ikkinchidan, inersion yo‘li tarixiy trend bilan cheklangan, ssenariylar orasidagi tafovut internet-savdo hissasi va elastikliklar orqali hisoblanadigan illyustrativ prognoz usuli sezgirlik tahlili bilan birga taklif qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nazariy asos - ikki tomonlama bozorlar va raqamli platformalar iqtisodiyoti. J.-C. Rochet va J. Tirole platforma foydaliligi bozorning ikkala tarafini bir paytda jalb etishga va narxlarning ular o‘rtasida qanday bo‘linishiga bog‘liqligini isbotlagan [9]. G. Parker va hammualliflar kirish ochiqligi va boshqaruv qoidalari qatnashchilar xulqini va qiymat taqsimotini belgilashini ko‘rsatgan [10], P. Constantinides va hammualliflar esa platforma va infratuzilma tobora chirmashib borayotganini, umumiy infratuzilma ustidagi platformalarni boshqarish alohida masala ekanini ta’kidlagan [11]. Platforma bir vaqtda bozor egasi va sotuvchi bo‘lgan holatda A. Hagiu, T.-H. Teh va J. Wright «ikki rejimli» faoliyatni butunlay taqiqlash iste’molchilar va jamiyat farovonligini kamaytirishi mumkinligini, o‘zini ustun qo‘yish va taqlidni cheklovchi aniq choralar esa ko‘pincha yaxshiroq natija berishini aniqlagan [12]. Bundan kelib chiqadiki, integratsiya qatlamini savdodan to‘liq ajratish, davlat vitrinasining savdosini esa o‘zini ustun qo‘ymaslik qoidalari bilan cheklash mumkin.

«Aqlli turizm» yondashuvida U. Gretzel va hammualliflar axborotni yig‘ish, almashish va qayta ishlash qatlamlarini turizm ekotizimining poydevori deb biladi [13], J.A. Ivars-Baidal va hammualliflar esa Ispaniya tajribasida aqlli destinatsiyalarni AKT rivojining destinatsiyani boshqarishdagi yangi bosqichi sifatida tahlil qilgan [14]. Raqamli jamoat infratuzilmasi (Digital Public Infrastructure, DPI) konsepsiyasi umumiy raqamli tizimlarni ochiq standartlar va o‘zaro moslik asosida qurish, davlat va xususiy xizmatlarga teng kirish berish hamda boshqaruvda himoya mexanizmlarini nazarda tutadi [15]. Uning amaliy namunalari - xususiy tashkilotlar ham ulanadigan Estoniyaning X-Road axborot almashinuvi tizimi [16], Hindistonning notijorat ochiq savdo tarmog‘i ONDC [17] va yo‘lovchi ma’lumotlarini markazda saqlamaydigan Digi Yatra [18].

Turizmdagi milliy platformalar turli modellarga ega. Singapur turizm kengashining TIH xabi kompaniyalarga kontent va ma’lumotlarni bepul interfeyslar orqali uzatadi: 2023-yil mart oyida undan 6 900 dan ziyod biznes foydalangan, interfeyslar soni 100 dan oshgan [19]. Ispaniyada SEGITTUR davlat kompaniyasining platformasi davlat va biznes ma’lumotlarini bir muhitga jamlaydi [20]. Tailandning TAGTHAi ilovasi davlat va xususiy tashkilotlar hamkorligida ishlaydi, 2024-yilda turizm boshqarmasi bilan memorandum imzolagan [21] va turistik paketlarni ham sotadi [22]; 2026-yil avgustida uni milliy turizm integratsiya platformasiga aylantirish rejasi ma’lum qilingan [23]. Bu holatlarning birortasida tur sotmaslik, natijaga bog‘langan DXSh to‘lovi, kirish rejimi va qayd etish xizmatlariga yagona kirish hamda uchinchi shaxslar tayana oladigan neytrallik qoidalari bir modelda jamlanmagan.

DXSh iqtisodiyotida E. Engel, R. Fischer va A. Galetovic hamkorlik davlat mablag‘ini «bo‘shatmasligini», uning asosi samaradorlik va xizmat sifati ekanini ko‘rsatgan [24], E. Iossa va D. Martimort qurilish va ekspluatatsiyani bitta shartnomaga birlashtirish, xatarlar va talab xatarini taqsimlash masalalarini yagona modelda o‘rgangan [25]. Raqamli infratuzilma va turistik talab bog‘liqligi bo‘yicha N. Kumar va R.R. Kumar to‘qqizta yirik destinatsiyada keng polosali internet obunalarining 1 foizlik o‘sishi xalqaro tashriflarning 0,11 foizlik o‘sishi bilan kechishini aniqlagan [26], H.F. Gholipour va hammualliflar 46 ta rivojlanayotgan davlatda telekommunikatsiya investitsiyalarining tashriflarga ta’siri davlat va xususiy sektor munosabatlari kuchli bo‘lganda ortishini ko‘rsatgan [27]. Prognozlash bo‘yicha sharhlarda vaqt qatorlari va ekonometrik modellar qiyoslangan [28], xalqaro tanlovda esa yillik turizm ma’lumotlarida naiv prognozdan ustun kelish qiyinligi va tushuntiruvchi o‘zgaruvchili modellar sof vaqt qatori usullaridan aniqroq emasligi qayd etilgan [29]; E. Gardner va E. McKenzie taklif qilgan so‘nuvchi trend uzoq gorizontda o‘sishni oshirib yuborish xavfini kamaytiradi [30].

Mahalliy adabiyotda raqamli turizm muhitini rivojlantirish yo‘nalishlari [31] va Buxoro viloyatida ichki turizmni ARIMA modeli bilan prognozlash [32] masalalari ko‘rilgan, muallifning oldingi ishlarida turoperatorlik raqamlashuvi va onlayn turplatformalar daromad modellari tahlil qilingan [5; 33]. Biz o‘rgangan manbalarda raqamli infratuzilma milliy turizm prognozlarida ssenariylarni farqlovchi omil sifatida qo‘llanilmagan, integratsiya qatlamining institutsional shakli esa O‘zbekiston misolida maxsus tadqiq etilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ishda institutsional-huquqiy va qiyosiy tahlil, ko‘p mezonli baholash, ekspertlar so‘rovi, birlik ko‘rsatkichlar bo‘yicha xarajat hisobi va ssenariyli prognozlash qo‘llanildi. Amaldagi hujjatlar integratsiya qatlamiga oid normalar nuqtai nazaridan o‘rganildi [34; 35; 36; 37; 38]. Integratsiya qatlamini tashkil etishning besh yo‘li olti mezon - neytrallik, mavjud tizimlarni takrorlamaslik, xususiy operatorlar uchun kirish qulayligi, byudjet yuki, joriy etish tezligi va texnologik xatarni o‘tkazish - bo‘yicha 1-3 ballik shkalada teng vaznlar bilan baholandi; ballar muallif bahosi bo‘lgani uchun vaznlarga sezgirlik ham tekshirildi. Xorij tajribasi olti holatda egalik va boshqaruv, savdo funksiyasi, identifikatsiya va qayd etish xizmatlari hamda asosiy vazifa bo‘yicha solishtirildi. Xarajatlar birlik ko‘rsatkichlardan (bir xodimga yiliga ≈36,7 ming dollar, bitta kichik biznesni ulash 1,5 ming dollar) hisoblanib, +30 foizlik variant bilan tekshirildi.

Bozor qatnashchilarining talablari 2026-yil 8–9-oktabrda o‘tkazilgan pilot so‘rov orqali o‘rganildi. Unda 15 nafar mutaxassis qatnashdi: yetti turoperator, besh turagent, ikki joylashtirish vositasi va bitta oliy ta’lim muassasasi vakili; o‘n ikki nafari Buxoro viloyatidan, qolganlari Toshkent shahri, Namangan va Qashqadaryodan. Sakkiz respondentda onlayn sotuvlar daromadning 10-30 foizi, uchtasida yarmidan ko‘pi. Infratuzilma bo‘yicha to‘rt savol berildi (cheklovchi qatlam, davlat tizimlariga ulanganlik, onlayn sotuvlarga to‘siqlar, milliy platformaning foydali vazifasi). Tanlanma kichik va hududiy jihatdan bir yoqlama, shuning uchun natijalar faqat tavsifiy.

Prognozning birinchi bosqichida tarixiy mo‘ljal aniqlandi: 2017-2025-yillardagi chet ellik turistlar soni (T, ming kishi) logarifmi vaqt va pandemiya fiktiv o‘zgaruvchisiga regressiya qilindi:

$$\ln T_t = 8{,}228 + 0{,}118\, t - 1{,}212\, D_t, \quad (1)$$

bunda $t = 0$ – 2017-yil, D_t 2020–2021-yillar uchun 1 ga teng; standart xatolar 0,035 va 0,214, $R^2 = 0{,}889$, $n = 9$; yillik trend o‘sishi 12,5 foiz ($e^{0{,}118} - 1$). Retrospektiv sinovda model 2017–2022-yillar bo‘yicha qayta baholanib, 2023-2025-yillar uchun 6,0; 2,6 va 26,8 foizlik xato bergan (MAPE 11,8 foiz). Qator qisqa bo‘lgani uchun trend tanlanmaga sezgir (2018-yildan boshlanganda 8,0 foiz, 2022-yil alohida ajratilganda 13,0 foiz), shuning uchun regressiya prognoz modeli emas, inersion ssenariy uchun yuqori mo‘ljal sifatida ishlatildi.

Ikkinchi bosqichda boshlang‘ich nuqta olindi: to‘qqiz oylik o‘sish (+20,4 foiz) saqlansa, 2026-yilda 14,1 mln turist kutiladi [3]; yanvar–avgustdagi 514 dollarlik tashrif qiymati bo‘yicha yillik eksport 7,24 mlrd dollar [39; 40]. 2026-yildan bu qiymat yangilangan tanlanma kuzatuv asosida hisoblanayotgani [41] sababli u 2025-yilgidan (418 dollar = 4 880,3 mln dollar / 11 679,6 ming tashrif) yuqori va avvalgi qator bilan bevosita solishtirilmaydi. Uchinchi bosqichda inersion yo‘l susayuvchi o‘sish sifatida qurildi: $g_t = \varphi \cdot g_{t-1}$, $g_{2026} = 20{,}4$ foiz. φ 2025-2030-yillardagi o‘rtacha o‘sish tarixiy trenddan oshmasligi sharti bilan tanlanadi ($\varphi \le 0{,}755$); asosiy hisobda $\varphi = 0{,}7$ (o‘rtacha 11,2 foiz), sezgirlik 0,6–0,9 oralig‘ida tekshirildi. G‘oya Gardner-McKenzie so‘nuvchi trendiga tayanadi [30], biroq pandemiya uzilishi bo‘lgan to‘qqiz yillik qatorda φ ni baholab bo‘lmaganidan u qoida bo‘yicha tanlandi. Tashrif qiymati nominal dollarda yiliga 3 foiz indeksatsiya qilinadi.

To‘rtinchi bosqichda bazaviy (B) va optimistik (O) ssenariylar inersion (I) yo‘ldan turoperatorlar daromadidagi internet-savdo hissasi (u, 0 dan 1 gacha) orqali hosil qilindi:

$$T_{s,t} = T_{I,t} \cdot (u_{s,t} / u_{I,t})^{\varepsilon_T}, \quad (2)$$

$$V_{s,t} = V_{I,t} \cdot (u_{s,t} / u_{I,t})^{\varepsilon_V}, \quad (3)$$

$$E_{s,t} = T_{s,t} \cdot V_{s,t}, \quad s \in \{B, O\}, \quad (4)$$

Bu yerda V – har bir tashrif hisobiga eksport tushumi, E – turizm eksporti. $\varepsilon_T = 0{,}11$ qiymati Kumar va Kumar natijasidan olingan [26]; uni bitta sotuv kanalining rivojini o‘lchovchi ko‘rsatkichga ko‘chirish kuchli faraz, chunki tashriflarning katta qismi turoperatorlarsiz amalga oshadi, shuning uchun u yuqori chegara deb qaraladi. ε_V ning bevosita bahosi yo‘q va u tarkib samarasidan taxmin qilindi: Expedia buyurtmasi bilan Oxford Economics o‘tkazgan tadqiqotda onlayn agentliklar orqali bron qilgan AQSh sayohatchilari safarda qariyb 18 foiz ko‘proq sarflagan [42] - bu sabab-oqibat emas, tanlanish ta’sirini ham o‘z ichiga olgan guruhlar farqi. $V = V_0(1 + 0{,}18u)$ bo‘lsa, elastiklik $0{,}18u/(1 + 0{,}18u)$ ga teng: bazaviy ssenariydagi ulush (0,13–0,25) uchun

0,023–0,043, optimistik ssenariyda 0,059 gacha. Asosiy hisobda bu oraliqning yaxlitlangan yuqori qiymati $\varepsilon_V = 0{,}05$ olindi, formulaning o‘zi qo‘llangandagi natija ham beriladi; 0,15 empirik asosga ega emas va faqat stress-test sifatida ishlatildi.

Internet-savdo hissasi 2025-yilda 11,5 foiz [5], 2026-yilda yagona platforma ishga tushishini hisobga olib barcha ssenariylarda 13 foiz deb olindi va 2030-yilgacha chiziqli oshadi: inersion ssenariyda 20, bazaviy ssenariyda 25, optimistik ssenariyda 35 foizgacha (yiliga 1,75; 3,0 va 5,5 foiz punkti). Bazaviy yo‘l 5-jadvaldagi KPI maqsadiga teng, ya’ni bazaviy ssenariy mustaqil natija emas, maqsadlarga erishilgan holat uchun shartli hisob. Optimistik sur’at raqamlashuvi eng tez kechgan bozorlarga yaqin: Xitoyda 2015-2020-yillarda sayohat xizmatlarining internetda sotiladigan qismi 30 foizdan 61 foizga ko‘tarilgan, ammo 2020-yilgi qiymatga pandemiya ham ta’sir qilgan [43]. Tashqi omillar ssenariylarda bir xil bo‘lgani uchun $\Delta T = T_B - T_I$ va $\Delta E = E_B - E_I$ raqamli infratuzilmaning shartli (illyustrativ) ta’siri deb talqin qilinadi: bu o‘lchangan sabab-oqibat emas, farazlar natijasidir. Bu ta’sir yagona platforma, operatorlar biznes-modellari va xabga birga tegishli, shuning uchun xarajat-natija tahlilida xabning zarur ulushi topiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor qatnashchilarining baholari

So‘rovda oltita respondent o‘z tashkiloti elektron viza va «E-mehmon» kabi davlat tizimlariga API orqali ulanganini, beshtasi ulanmaganini, uchtasi ulanishni rejalashtirayotganini bildirgan, bittasi javob bera olmagan; ulanganlar bitta tizimga ulanish 3-7 kun va 0,3-2 mln so‘m talab qilganini aytgan (uchta javob). Faoliyatni eng ko‘p cheklaydigan qatlam sifatida to‘lov tizimlarini besh nafar, institutsional muhitni to‘rt, axborot-savdo vositalarini uch, ma’lumotlarga kirishni ikki, identifikatsiyani bir nafar ko‘rsatgan, texnik qatlamni hech kim tanlamagan. Erkin javoblarda mijozlarning onlayn to‘lovga ishonmasligi va past raqamli savodxonlik (4), integratsiya yetishmasligi va bronlash tizimlarining beqarorligi (4), to‘lov cheklovlari (3) ko‘p tilga olingan. Milliy platformadan eng ko‘p kutilgan vazifa - turlarni sotish (7) va xorijda targ‘ibot (5); anonim analitikani ikki, davlat tizimlariga yagona ulanishni bir respondent tanlagan, reyestr va kontentni hech kim tanlamagan.

Bundan ikki xulosa chiqadi. Birinchidan, bozor uchun bevosita foyda – savdo kanali va targ‘ibot, xabning asosiy vazifasi esa faqat bitta respondent uchun ustuvor: xab foydasi bilvosita (ulanish vaqti va xarajati qisqaradi), shuning uchun u platforma vitrinasi kabi bevosita xizmatlar bilan birga taklif etilishi kerak; xab konsepsiyasi va tarif to‘lashga tayyorlik keyingi bosqichda alohida o‘rganiladi. Ikkinchidan, hozir har bir tizimga alohida ulaniladi – oltita tizimga ketma-ket ulanish 18–42 kun olishi mumkin, bu 5-jadvaldagi boshlang‘ich daraja sifatida olindi.

Integratsiya qatlamining institutsional shakli

Besh yo‘l solishtirildi (1-jadval). Birinchisida xab yagona platformaning tarkibiy qismi bo‘lib qoladi. Ikkinchisida uning vazifalari «Elektron hukumat» idoralararo platformasiga beriladi, biroq qonunga ko‘ra u davlat organlari o‘rtasida axborot almashish uchun mo‘ljallangan [36] va xususiy operatorlarni ulash qonunni o‘zgartirishni talab qiladi. Uchinchisida xab mustaqil DXSh obyekti bo‘lib, davlat tizimlariga idoralararo platforma orqali ulanadi. To‘rtinchisida uni qonun bilan neytrallik majburiyati yuklangan davlat korxonasi yoki notijorat tashkilot yaratadi. Beshinchisida yangi vositachi tuzilmaydi, har bir davlat tizimi egasi ochiq API va standartlarni joriy etishga majbur qilinadi.

1-jadval

Integratsiya qatlamini tashkil etish yo‘llarining ko‘p mezonli bahosi (1 – past, 3 – yuqori)

Yo‘l	Neytrallik	Takrorlamaslik	Xususiy kirish	Byudjet yuki (kam)	Joriy etish tezligi	Xatarni o‘tkazish	Jami
1. Yagona platforma tarkibida	1	3	2	3	3	1	13
2. «Elektron hukumat» platformasida	2	3	1	2	2	1	11

3. Mustaqil DXSh obyekti	3	2	3	2	1	3	**14**
4. Neytral davlat tashkiloti	3	2	3	2	2	1	13
5. Tizimlarda ochiq API majburiyati	3	3	1	3	2	1	13

Teng vaznlarda uchinchi yo‘l 14 ball bilan oldinda, ammo farq kichik – qolgan uchtasi 13 ball oladi. Neytrallik vazni ikki baravar oshirilganda ham u birinchi (17), to‘rtinchi va beshinchi yo‘llar (16) keyingi o‘rinda, birinchi yo‘l esa 14 ballga tushadi. Uchinchi yo‘lning ustunligi texnologik xatarni sherikka o‘tkazish va to‘lovni natijaga bog‘lash imkoniyatidan kelib chiqadi, DXSh nazariyasida bu hamkorlikning asosiy dalilidir [25]. Beshinchi yo‘l unga muqobil emas, sharti: davlat tizimlari egalariga ochiq API majburiyati baribir yuklanadi. Tender natija bermasa, to‘rtinchi yo‘l zaxira bo‘ladi.

Xab tushunchasi va xorijiy analoglar

Yuqoridagilar asosida mualliflik ta’rifi taklif qilinadi: **Milliy raqamli turistik xab** - milliy miqyosdagi o‘zaro muvofiqlik (integratsiya) infratuzilmasi bo‘lib, turizmga oid davlat raqamli xizmatlari va ma’lumotlarini bozor platformalariga umumiy standartlar va dasturiy interfeyslar vositasida ulaydi, o‘zi bitim tuzmaydi, mahsulot sotmaydi va komissiya undirmaydi, mamlakat ichidagi va xorijdagi barcha bozor qatnashchilariga oshkora va kamsitishsiz shartlarda kirish beradi. Shu belgilar birgalikda xabni neytral qiladi. DXSh esa ta’rifning bir qismi emas, yaratishning tavsiya etilgan shakli: xab boshqa shaklda (1-jadvaldagi to‘rtinchi yo‘l) ham tashkil etilishi mumkin.

2-jadval


Milliy integratsiya va turizm platformalarining qiyosiy tavsifi

Holat	Egalik va boshqaruv	Savdo, komissiya	Identifikatsiya va qayd etish	Asosiy vazifa
Singapur - TIH	Turizm kengashi (davlat organi)	Yo‘q	Yo‘q	Kontent va ma’lumotlar API
Ispaniya - SEGITTUR	Davlat kompaniyasi	Yo‘q	Yo‘q	Davlat va biznes ma’lumotlarini jamlash
Tailand - TAGTHAi	Ijtimoiy korxona (davlat–xususiy hamkorlik)	Ha	Yo‘q	Agregatsiya va savdo
Estoniya - X-Road	Davlat (Axborot tizimlari boshqarmasi)	Yo‘q	Yo‘q; xususiy tashkilotlar ham ulanadi	Xavfsiz axborot almashinuvi
Hindiston - ONDC	Notijorat kompaniya, DPIIT tashabbusi	Yo‘q; ochiq protokol	Yo‘q	Ochiq savdo tarmog‘i
Hindiston - Digi Yatra	Notijorat kompaniya (aeroportlar ma’muriyati 26 % va aeroport operatorlari)	Yo‘q	Ha; ma’lumot yo‘lovchi qurilmasida	Aeroportda identifikatsiya
O‘zbekiston - taklif etilayotgan xab	**DXSh (davlat mulki, xususiy operator)**	**Yo‘q; xarajatni qoplovchi tarif**	**Ha; e-viza, chegara, «E-mehmon», MyID (token)**	**Davlat xizmatlari va bozor integratsiyasi**

Taklif etilayotgan xabning alohida belgilari yangi emas: tur sotmaydigan xablar (Singapur, Ispaniya), xususiy sektor ulanadigan davlat axborot almashinuvi (Estoniya), notijorat ochiq tarmoq va markazlashmagan identifikatsiya (Hindiston) mavjud. Yangilik ularni turizm uchun bitta dizaynda birlashtirishda: savdo va komissiyadan voz kechish, kirish rejimi va qayd etish xizmatlariga yagona kirish, xizmat sifatiga bog‘langan DXSh to‘lovi va uchinchi shaxslar tayana oladigan neytrallik qoidalari.

Xab vazifalari, ma'lumotlar boshqaruvi va neytrallik kafolatlari

Xab vazifalari besh guruhga bo‘lindi, unga oltita davlat tizimi ulanadi (3-jadval, 1-rasm). Yagona platforma ulanuvchi tizim emas, boshqa vitrinalar bilan teng huquqli mijoz; mobil aloqa va karta to‘lovlari bo‘yicha xususiy jamlanma ma'lumotlar faqat tahlil uchun ishlatiladi. Aksariyat vazifalar uchun huquqiy asos bor, ammo xususiy operatorlarni ulash tartibi, ma'lumot standartlari va shaxsiy ma'lumotlar himoyasi belgilanmagan.



1-rasm. Xab davlat tizimlari va bozor qatnashchilarini tutashtiruvchi integratsiya qatlami sifatida

3-jadval

Xab vazifalari, ulanuvchi tizimlar va huquqiy asoslar

Vazifalar guruhi	Ulanuvchi tizimlar va manbalar	Huquqiy asos	Natija
Integratsiya: kirish rejimi va qayd etish	(1) e-viza; (2) chegaradan o‘tish bazasi; (3) «E-mehmon»; (4) MyID	PF-87 (3-ilova); PQ-348 (10-b. «a»)	Viza va kirish maqomini bitta so‘rovda aniqlash; bron paytida avtomatik qayd etish
Standartlashtirish	(5) Turizm qo‘mitasi reyestrlari (turoperator, gid, mehmonxona, obyekt)	VMQ-105 (nizom, 11-b.)	Umumiy ma'lumot formati va obyektlarning yagona kodi
Statistika va tahlil	(6) Milliy statistika qo‘mitasi bazalari; xususiy jamlanma manbalar (aloqa, karta to‘lovlari)	PF-87 (3-ilova); PQ-348 (11-b.)	Anonim oqim statistikasi; avtomatik hisobot
Kontent tarqatish	Mijozlar: yagona platforma, xalqaro agregatorlar, operatorlar saytlari	VMQ-820 (1-b.)	Hamma vitrinaga bir xil kontent; xab reyting va targ‘ibot qilmaydi
Qo‘llab-quvvatlash	Hududiy kichik biznes: mehmon uylari, mahalliy operatorlar, gidlar, hunarmandlar	PQ-161 (6-b. «b»)	Bepul ulanish paketi; internet-savdoga chiqish

Ma'lumotlar bilan ishlash qoidalari quyidagicha. Xab davlat tizimlaridagi shaxsiy ma'lumotlarni o‘zida saqlamaydi: fuqarolarni MyID, chet elliklarni pasport va e-viza ma'lumotlari orqali operator identifikatsiya qiladi, xab esa taxallusli belgi (token) uzatadi xolos. Token ham shaxsga doir ma'lumot bo‘lgani uchun xab qonun bo‘yicha ishlov beruvchining majburiyatlarini bajaradi [38]: himoya choralarini oldindan baholaydi, shifrlaydi va kirishlarni qayd etadi. Axborot uch toifaga bo‘linadi: ochiq (reyestrlar, jamlanma statistika), cheklangan (bitim ma'lumotlari - faqat uni yaratgan operatorga) va shaxsiy. Beshtadan kam firmani qamragan statistik kataklar e'lon qilinmaydi, aks holda kichik hududiy bozorda alohida firma ma'lumoti oshkor bo‘ladi. Xalqaro agregatorlar davlat tizimlaridan shaxsiy ma'lumot olmaydi - faqat bron va qayd etish holati

uzatiladi. «E-mehmon» va boshqa tizimlar o‘z egalari va vazifalarini saqlaydi; xab ularning o‘rnini bosmaydi, yagona kirish nuqtasini beradi, mavjud to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulanishlar esa ixtiyoriy saqlanadi.

Neytrallik kafolatlari sheriklik shartnomasidan tashqari Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan qoidalarga ham kiritiladi, shunda operatorlar va agregatorlar ham ularga tayanishi mumkin. Qoidalar to‘rt talabdan iborat: barcha mijozlar uchun bir xil texnik va huquqiy shartlar; xab, operator va uning affillangan shaxslari tur sotmaydi, vositachilik qilmaydi va komissiya olmaydi; tarif xarajatni qoplash darajasida va oshkora mezon (yillik so‘rovlar hajmi) bo‘yicha belgilanadi, kichik biznes imtiyozi ham shu mezonga tayanadi; anonim tahlil natijalari hammaga bir vaqtda e’lon qilinadi. Ijroni Turizm qo‘mitasidan mustaqil kuzatuv kengashi nazorat qiladi, uning a’zolarining ko‘pchiligi IT-sanoat, turoperatorlar va mehmonxonalar uyushmalari hamda akademik hamjamiyat vakillari bo‘ladi; kamsitish bo‘yicha shikoyatlarni Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonun asosida ko‘radi [45]. Savdo vitrinasi bo‘lib qoladigan yagona platforma uchun ham qoidalar zarur: saralash mezonlarini oshkor qilish, o‘z mahsulotini ustun qo‘ymaslik va davlat ma’lumotlaridan boshqalar bilan teng sharoitda foydalanish.

Xarajatlar, moliyalashtirish va DXSh shartlari

Shartnomaning dastlabki besh yili (reja bo‘yicha 2026-yil II yarmidan 2030-yilgacha) uchun bir martalik xarajatlar 16,5 mln, yillik joriy xarajatlar 1,9 mln, jami 25,05 mln dollar (4-jadval). Joriy sarflar shartnoma boshidan hisoblanadi, chunki ishlab chiqish jamoasi, sinov muhiti va xosting yaratish bosqichida ham kerak. Zaxira bir martalik xarajatlarning ≈6 foizi bo‘lib, konsepsiya bosqichi uchun kam, shuning uchun +30 foizlik variant (≈32,6 mln) ham ko‘riladi. Ispaniyada Tiklanish rejasidan turizmni raqamlashtirish va sun’iy intellektga 130 mln yevro yo‘naltirilgan, aqlli destinatsiyalar platformasi shulardan biri [46]; qamrov kengroq bo‘lgani uchun bu raqam faqat miqyosni solishtirishga xizmat qiladi.

4-jadval

Shartnomaning dastlabki besh yilidagi (2026–2030) xab xarajatlari va moliyalashtirish manbalari

Modda	Mln AQSh doll.	Hissasi, %
Xarajatlar		
Integratsiya yadrosi: API shlyuzi, reyestr va tahlil modullari, ma’lumotlar ombori	9,00	35,9
Kiberxavfsizlik, ISO/IEC 27001 sertifikati va shaxsiy ma’lumotlar himoyasi	2,00	8,0
Standartlar, klassifikatorlar va kontentni ko‘chirish	1,50	6,0
Viloyatlardagi kichik tadbirkorlarni tizimga qo‘shish dasturi (bepul paket, o‘quv kurslari)	3,00	12,0
Rejadan tashqari sarflar zaxirasi	1,00	4,0
Bir martalik xarajatlar, jami	**16,50**	**65,9**
Joriy sarflar: yiliga 1,9 mln (xosting va litsenziya 0,6; ≈30 xodim 1,1; audit, monitoring, o‘qitish 0,2) × 4,5 yil	8,55	34,1
Hammasi	**25,05**	**100,0**
Moliyalashtirish manbalari		
Davlat (Turizmni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi): mavjudlik to‘lovlari va kichik biznesni ulash	10,40	41,5
Xalqaro moliya tashkilotlarining imtiyozli qarzi va texnik yordami (davlat qarzi hisobida)	6,50	25,9
Xususiy sherik: oldindan moliyalashtirish (2031–2032-yillarda mavjudlik to‘lovlaridan qaytariladi)	6,00	24,0
Yirik foydalanuvchilarning ulanish tarifi (2027–2030)	2,15	8,6

Xususiy sherik ulushi 24,0 foiz bo‘lsa-da, bu mablag‘ keyinchalik davlat to‘lovlaridan qaytariladi, xalqaro qarz esa davlat qarzi hisoblanadi - yakunda xarajatlarning ≈91 foizini davlat ko‘taradi. Bu Engel va hammualliflarning DXSh davlat mablag‘ini bo‘shatmasligi haqidagi

xulosasiga mos [24]: xab uchun DXSh foydasi moliyalashtirishda emas, qurish va ishlatishni bitta shartnomada birlashtirish, texnologik xatarni sherikka o‘tkazish va to‘lovni xizmat sifatiga bog‘lashda [25]; bu ustunlik konsepsiya bosqichida davlat buyurtmasi varianti bilan «narx–sifat» taqqoslashida isbotlanishi kerak. To‘liq shartnoma muddati uchun 2031–2032-yillardagi joriy sarflar (≈3,8 mln) va xususiy kapital daromadi (yillik 12 foiz deb faraz qilinganda ≈4,0 mln) qo‘shilib, xarajatlar ≈32,8 mln dollarni tashkil etadi.

Shartnoma shartlari: shakl - loyihalash, yaratish, moliyalashtirish va ekspluatatsiya (DBFO), dasturiy majmua, manba kodi va ma’lumotlar davlat mulki; muddat - 7 yil (1,5 yil yaratish, 5,5 yil ishlatish); operator ikki bosqichli tenderda tanlanadi, 10 mln dollardan qimmat loyiha konsepsiyasini Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydi (O‘RQ-537, 11-modda) [37]. Konsepsiya va tender 2027-yilda tugasa, xab 2028–2029-yillarda to‘liq ishlaydi – xarajat tarkibi o‘zgarmaydi, muddatlar suriladi. To‘lovlar: xizmat sifatiga bog‘liq mavjudlik to‘lovi va xarajatni qoplovchi tarif (yiliga ≈3,8 ming dollar faqat ≈200 yirik operator va agregatordan; tushum joriy sarflarning 40 foizidan oshmaydi; kichik biznes va yangi kompaniyalar ilk ikki yil ozod). Xatarlar: texnologik va ekspluatatsion - sherikda, davlat tizimlarining tayyorligi va huquqiy o‘zgarishlar - davlatda, ulanishlar soni - bo‘lishilgan (mavjudlik to‘lovi kafolatlangan minimumni qoplaydi, tarif tushumi esa ulanishlarga bog‘liq). Bog‘lanib qolishning oldini olish uchun manba kodi depozitga topshiriladi, ochiq standartlar majburiy, shartnoma oxirida tizimni topshirish rejasi va davlatning aralashish huquqi nazarda tutiladi. Komissiya va tur sotish taqiqlanadi: onlayn turplatformalarda komissiya bir bitimdan o‘rtacha 18,47 dollar keltiradi [33], lekin aynan u xabni raqobatchiga aylantiradi.

Samaradorlik indikatorlari

Indikatorlar ikki guruhga bo‘lindi (5-jadval). Mavjudlik to‘lovi faqat birinchi guruhga – sherik o‘zi boshqara oladigan xizmat sifatiga bog‘lanadi; davlat tizimlarining tayyorligi yoki talab ta’sir qiladigan ko‘rsatkichlar to‘lovga aloqasi yo‘q monitoringga o‘tkazildi.

5-jadval

Xab faoliyatini baholash indikatorlari (KPI) va ularning maqsadli darajalari

Indikator	2025-yil (holat)	2028-yil	2030-yil
1-guruh: mavjudlik to‘lovi bog‘lanadigan indikatorlar			
Interfeysning uzluksiz ishlashi (uptime), %	–	99,9	99,95
Yangi operatorni oltita tizimga bitta shartnoma bilan ulash muddati (davlat organlari kelishuvidan keyin), ish kuni	har bir tizimga alohida 3–7 kun	10	5
Yillik mustaqil kiberxavfsizlik auditi	–	jiddiy kamchiliksiz	jiddiy kamchiliksiz
2-guruh: monitoring indikatorlari (to‘lovga bog‘lanmaydi)			
Xabga ulangan davlat tizimlari soni	–	6	6
Bir ulanish hisobiga yillik ekspluatatsiya sarfi, ming doll.	–	1,4	0,7
Tarif tushumining joriy sarflarni qoplash darajasi, %	–	25	40
Statistik hisobot beruvchi turistik firmalardan xabga ulanganlari, %	–	60	90
Xab orqali tarmoqqa chiqqan hududiy kichik biznes subyektlari	–	800	2 000
Internet orqali sotuvlarning turoperatorlar daromadidagi hissasi, %	11,5	19	25
Statistik hisobotda aks etadigan turistik firmalar hissasi, %	31,3	50	70
Hududlar bo‘yicha turizm statistikasining chiqish chastotasi	yiliga bir marta	har chorakda	har oyda

.

Ulanishlar soni xabga ulangan hisobot beruvchi firmalar (2025-yildagi 869 tadan 60 va 90 foiz), kichik biznes subyektlari (800 va 2 000) va boshqa mijozlar (agregator va vitrinalar, ≈30-40) yig‘indisi sifatida topilgan: 2028-yilda ≈1 350, 2030-yilda ≈2 820; tarif to‘lovchilar (125 va 200) - yirik operator va agregatorlar. Hisobot beruvchi firmalarning biznes-registrdagi faol korxonalarga

nisbati 2025-yilda 31,3 foiz bo‘lgan; ulangan firma hisoboti avtomatik tayyorlangani uchun 70 foizga erishish ulanish darajasiga bog‘liq.

Ssenariyli prognoz natijalari

Asosiy hisob natijalari (φ = 0,7) 6-jadvalda jamlangan: 2030-yilga borib chet ellik turistlar ssenariyga qarab 19,9-21,1 mln kishini, 2025-2030-yillardagi o‘rtacha o‘sish 11,2-12,6 foizni, turizm eksporti 11,50-12,57 mlrd dollarni tashkil qiladi.

6-jadval

2030-yilgacha turizm ko‘rsatkichlarining muqobil ssenariylari (asosiy hisob, φ = 0,7)

Ko‘rsatkich	2025 (haqiqiy)	2026 (baho)	2028	2030
Internet-savdo hissasi, %: I / B / O	11,5	13 / 13 / 13	16,5 / 19 / 24	20 / 25 / 35
Chet ellik turistlar soni, mln - inersion ssenariy	11,7	14,1	17,7	19,9
- bazaviy ssenariy	11,7	14,1	18,0	20,4
- optimistik ssenariy	11,7	14,1	18,5	21,1
Har bir tashrif hisobiga eksport, doll.: I / B / O	418	514 / 514 / 514	545 / 549 / 555	578 / 585 / 595
Turizm eksporti, mlrd doll. - inersion ssenariy	4,88	7,24	9,65	11,50
- bazaviy ssenariy	4,88	7,24	9,87	11,91
- optimistik ssenariy	4,88	7,24	10,25	12,57
Bazaviy ssenariyning inersion ssenariydan ustunligi - turistlar, mln	-	-	**0,28**	**0,49**
xuddi shu - eksport, mlrd doll.	-	-	**0,22**	**0,42**

Natijalar φ ga kuchli bog‘liq: φ = 0,6; 0,7; 0,8 va 0,9 bo‘lsa, 2030-yilda inersion ssenariyda 18,2; 19,9; 22,2 va 25,3 mln, bazaviy ssenariyda 18,6; 20,4; 22,7 va 25,9 mln turist kutiladi, ssenariylar farqi 0,45–0,63 mln turist va 0,38–0,53 mlrd dollar oralig‘ida o‘zgaradi. φ noaniqligi xab ta’siridan bir necha baravar katta, nisbiy ta’sir (≈2,5 foiz) esa unga bog‘liq emas. MAPE asosidagi taxminiy oraliq (±11,8 foiz) bazaviy ssenariy uchun 18,0-22,8 mln kishini beradi, shuning uchun 20 mln mo‘ljal haqida qat’iy xulosa qilib bo‘lmaydi: bazaviy ssenariy unga $\varphi \geq 0{,}68$ da, inersion ssenariy $\varphi \geq 0{,}71$ da yetadi.

Rasmiy mo‘ljallar bilan solishtirishda ko‘rsatkich qamrovini hisobga olish kerak. Murojaatnomada besh yilda chet ellik turistlar sonini 11 mln dan 20 mln ga yetkazish va turizm xizmatlari hajmini 20 mlrd dollarga chiqarish vazifasi qo‘yilgan [47]: turistlar bo‘yicha mo‘ljal PQ-348 bilan bir xil, 20 mlrd dollar esa ichki turizmni ham o‘z ichiga olgan hajm bo‘lib, eksport prognozi bilan solishtirilmaydi. 2026-yil sentabrida 2030-yilga «xizmatlar eksportini 8 milliard dollardan oshirish» maqsadi e’lon qilingan [48]; agar u matn mazmunidan kelib chiqib turizm xizmatlariga tegishli deb olinsa, uchala ssenariy undan yuqori (bazaviy ssenariy 49 foizga), lekin ko‘rsatkich qamrovini rasmiy hujjatda aniqlashtirish zarur.

Asosiy hisobda bazaviy va inersion ssenariylar farqi 2030-yilda 0,49 mln turist (2,5 foiz) va 0,42 mlrd dollar eksport (3,6 foiz), optimistik va inersion ssenariylar farqi 1,26 mln turist va 1,08 mlrd dollar. O‘quvchi natijani o‘z farazlariga moslab qayta hisoblashi uchun birlik ta’sir ham beriladi: 2030-yilda internet-savdo hissasining har qo‘shimcha foiz punkti ≈0,09 mln turist va ≈0,075 mlrd dollar eksportga teng. Eksportdagi nisbiy ta’sirning kattaroq bo‘lishi model tuzilishidan ($\varepsilon_V > 0$) kelib chiqadi va mustaqil dalil emas.

Natijalar muhokamasi

Turistlar bo‘yicha 2,5 foizlik ta’sir ICT elastikligiga asoslangani uchun yuqori chegaradir: u faqat onlayn kanal bilan ko‘proq bog‘liq uzoq xorij tashriflariga tegishli deb olinsa (2026-yil yanvar–avgustda qo‘shni davlatlar hissasi 79,9 foiz [39]), ≈0,1 mln kishigacha qisqaradi; eksportdagi kamayishni mamlakatlar kesimidagi xarajatlar e’lon qilinmagani uchun baholab bo‘lmadi. ε_V formulasi bevosita qo‘llansa eksport ta’siri 0,39 mlrd dollar (3,4 foiz), stress-testdagi $\varepsilon_V = 0{,}15$ da 0,69 mlrd; ε_T 0,05–0,20 va ε_V 0,03–0,15 oralig‘ida ta’sir 0,22–0,91 mln turist va 0,21–0,93 mlrd dollar. Gholipour va hammualliflar natijasi [27] institutsional munosabatlar sifatiga

tegishli, demak xab ta’siri neytrallik qoidalari ijrosiga bog‘liq; Hagiu va hammualliflar xulosasi [12] bilan birga bu yagona platformaga nisbatan maqsadli cheklovlarni asoslaydi.

Xarajat va natija ikki usulda solishtirildi. Yalpi hisobda 2027–2030-yillardagi jami eksport farqi ≈1,07 mlrd dollar, xabning besh yillik sarfi uning 2,3 foizi. Qat’iy hisobda foyda 10 foiz stavkada diskontlandi (≈0,81 mlrd; xab to‘liq quvvatga 2028-yilda chiqsa ≈0,71 mlrd dollar), eksportning qo‘shilgan qiymat hissasi 50 foiz deb faraz qilindi, xarajat esa to‘liq shartnoma muddati va xususiy kapital daromadi bilan olindi (32,8 mln; +30 foiz variantida 41,5 mln dollar). Bunda xab umumiy shartli ta’sirning 8–12 foizini ta’minlasa, o‘zini qoplaydi. Ta’sir avvalo yagona platforma va operatorlarning o‘z sarmoyasi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun xab hissasini u ishga tushgach aniqlash mumkin; 2030-yildan keyingi foyda hisobga olinmagani esa bahoni ehtiyotkor qiladi.

Cheklovlar: elastikliklar xorij ma’lumotlariga tayanadi; so‘rov kichik va asosan Buxoroga tegishli; 2026-yildan tashrif qiymati yangi uslubda hisoblanmoqda; xarajatlar konsepsiya bosqichidagi baho. Xab bosqichma-bosqich ishga tushirilsa, ulangan va hali ulanmagan firmalarni «farqlar farqi» usulida solishtirib, elastikliklarni milliy ma’lumotlarda qayta baholash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Yagona platformaning davlat tizimlariga kirish eshigi va savdo vitrinasi sifatida bir vaqtda loyihalanishi xususiy onlayn turoperatorlar bilan manfaatlar to‘qnashuvini yuzaga keltiradi. Ko‘p mezonli solishtirish integratsiya qatlamini mustaqil DXSh obyekti – Milliy raqamli turistik xab ko‘rinishida tashkil etishga kichik, ammo barqaror ustunlik berdi; davlat tizimlarida ochiq API majburiyati uning sharti, neytrallik mandatli davlat tashkiloti – zaxira yo‘l.

2. Xab oltita davlat tizimiga yagona kirish beradi, sotmaydi va shaxsiy ma’lumotlarni saqlamaydi; neytrallik hukumat qoidalari, mustaqil kengash va raqobat organi orqali ta’minlanadi. Xarajat besh yilda 25,05 mln, to‘liq shartnoma muddatida ≈32,8 mln dollar, yakunda ≈91 foizini davlat qoplaydi.

3. Illyustrativ prognozga ko‘ra 2030-yilda chet ellik turistlar 19,9–21,1 mln, turizm eksporti 11,50-12,57 mlrd dollar bo‘lishi mumkin, natijalar φ ga kuchli sezgir. Raqamli infratuzilmaning shartli ta’siri 0,49 mln turist va 0,42 mlrd dollar (tarkibiy formulada 0,39 mlrd), xab bu ta’sirning 8–12 foizini bersa ham o‘zini oqlaydi.

Takliflar:

- Turizm qo‘mitasi Raqamli texnologiyalar vazirligi bilan 2027-yilning birinchi yarmida xab konsepsiyasini davlat buyurtmasi varianti bilan «narx–sifat» taqqoslashi bilan birga tayyorlab, Vazirlar Mahkamasiga kiritsin; Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi DXShni rivojlantirish agentligi tender va fiskal majburiyatlar hisobini ta’minlasin;

- Turizm qo‘mitasi Vazirlar Mahkamasining 820-son va Prezidentning PQ-348-son qarorlariga tuzatishlar loyihasini tayyorlasin: platformadan integratsiya qatlamini ajratib xabga berish, platforma savdosida o‘zini ustun qo‘ymaslik talablari;

- Vazirlar Mahkamasi qarori bilan xabning neytrallik qoidalari va mustaqil kuzatuv kengashi nizomi tasdiqlansin, shikoyatlarni ko‘rish Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasiga yuklansin, davlat tizimlari egalariga ochiq API va standartlar majburiyati belgilansin;

- sohaviy qonunga [49] «onlayn turoperator» hamda «raqamli turistik platforma» atamalari qo‘shilsin;

- Milliy statistika qo‘mitasi internet-savdo hissasi va statistik ko‘rinuvchanlik ko‘rsatkichlarini kiritsin, hududiy turizm statistikasini choraklik e’lon qilishga o‘tsin;

- PQ-348 asosida tayyorlanadigan 2040-yilgacha soha strategiyasi va 2030-yilgacha marketing dasturida prognozdan yagona raqam emas, ssenariylar oralig‘i sifatida foydalanilsin [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. В 2025 году Узбекистан посетили 11,7 миллиона туристов : пресс-релиз от 16.01.2026.

2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: «Экспорт услуг (по видам услуг, годовой)», qator «Поездки (туризм)» (1501), 2010-2025.

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. 2026-yilning yanvar-sentabr oylarida O‘zbekistonga 10,3 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi : matbuot xizmati xabari [Elektron resurs]. - 2026. - 7 oktabr.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-noyabrdagi «O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish va turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-348-son qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

5. Кадирова Ш.Х., Лустина Т.Н. Цифровизация туроператорской деятельности в регионах Узбекистана: оценка уровня внедрения и региональные диспропорции // Сервис plus. - 2026. - Т. 20, № 2. - С. 47-53. - DOI: 10.22412/2413-693X-2026-20-2-47-53.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi «“Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6079-son Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-dekabrdagi «Turizm sohasini raqamlashtirish va turistik xizmatlarni yagona platformaga birlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 820-son qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi «2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-87-son Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

9. Rochet J.-C., Tirole J. Platform competition in two-sided markets // Journal of the European Economic Association. - 2003. - Vol. 1, No. 4. - P. 990–1029. - DOI: 10.1162/154247603322493212.

10. Parker G.G., Van Alstyne M.W., Choudary S.P. Platform Revolution: How Networked Markets Are Transforming the Economy and How to Make Them Work for You. - New York: W.W. Norton & Company, 2016. – 352 p.

11. Constantinides P., Henfridsson O., Parker G.G. Introduction - Platforms and infrastructures in the digital age // Information Systems Research. - 2018. - Vol. 29, No. 2. - P. 381-400. - DOI: 10.1287/isre.2018.0794.

12. Hagiu A., Teh T.-H., Wright J. Should platforms be allowed to sell on their own marketplaces? // RAND Journal of Economics. - 2022. - Vol. 53, No. 2. - P. 297-327. - DOI: 10.1111/1756-2171.12408.

13. Gretzel U., Sigala M., Xiang Z., Koo C. Smart tourism: foundations and developments // Electronic Markets. - 2015. - Vol. 25, No. 3. - P. 179-188. - DOI: 10.1007/s12525-015-0196-8.

14. Ivars-Baidal J.A., Celdrán-Bernabeu M.A., Mazón J.-N., Perles-Ivars Á.F. Smart destinations and the evolution of ICTs: a new scenario for destination management? // Current Issues in Tourism. - 2019. - Vol. 22, No. 13. - P. 1581-1600. - DOI: 10.1080/13683500.2017.1388771.

15. United Nations Development Programme. The DPI Approach: A Playbook [Elektron resurs]. - New York: UNDP, 2023.

16. Riigi Infosüsteemi Amet (RIA). Andmevahetuskiht X-tee [Elektron resurs].

17. Open Network for Digital Commerce (ONDC). About ONDC [Elektron resurs].

18. Digi Yatra Foundation. [Rajya Sabha so‘roviga javob: yo‘lovchilar ma’lumotlarini saqlash] [Elektron resurs].

19. TTG Asia. STB offers free resource to boost tourism businesses’ digitalisation efforts, welcome more visitors [Elektron resurs]. – 2023. – 22 March.

20. SEGITTUR. Smart Destinations Platform (Plataforma Inteligente de Destinos) [Elektron resurs].

21. Tourism Authority of Thailand. TAT and TAGTHAi sign MOU to bolster Thailand tourism [Elektron resurs] // TAT Newsroom. – 18.01.2024.

22. TAGTHAi. TAGTHAi Pass launch : press release [Elektron resurs] // Business Wire. – 04.08.2022.

23. Government Public Relations Department, Thailand. Thailand to position TAGTHAi as national tourism hub [Elektron resurs]. – 28.08.2026.

24. Engel E., Fischer R.D., Galetovic A. The Economics of Public-Private Partnerships: A Basic Guide. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – DOI: 10.1017/CBO9781139565615.

25. Iossa E., Martimort D. The simple microeconomics of public-private partnerships // Journal of Public Economic Theory. – 2015. – Vol. 17, No. 1. – P. 4–48. – DOI: 10.1111/jpet.12114.

26. Kumar N., Kumar R.R. Relationship between ICT and international tourism demand: a study of major tourist destinations // Tourism Economics. – 2020. – Vol. 26, No. 6. – P. 908–925. – DOI: 10.1177/1354816619858004.

27. Gholipour H.F., Andargoli A.E., Arjomandi A., Foroughi B. Capital investment in telecommunications infrastructure and tourist arrivals in developing countries: does the public–private sectors relationship matter? // Tourism Economics. – 2022. – Vol. 28, No. 7. – P. 1805–1822. – DOI: 10.1177/13548166211014814.

28. Song H., Li G. Tourism demand modelling and forecasting – a review of recent research // Tourism Management. – 2008. – Vol. 29, No. 2. – P. 203–220. – DOI: 10.1016/j.tourman.2007.07.016.

29. Athanasopoulos G., Hyndman R.J., Song H., Wu D.C. The tourism forecasting competition // International Journal of Forecasting. – 2011. – Vol. 27, No. 3. – P. 822–844. – DOI: 10.1016/j.ijforecast.2010.04.009.

30. Gardner E.S., McKenzie E. Forecasting trends in time series // Management Science. – 1985. – Vol. 31, No. 10. – P. 1237–1246. – DOI: 10.1287/mnsc.31.10.1237.

31. Taniyev A.B. Raqamli turizm muhitini rivojlantirish yo‘nalishlari // Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. – 2024. – Vol. 4, No. 07. – B. 102–109. – DOI: 10.55439/AFA/vol4_iss07/427.

32. Khidirova G.R. Improving forecasting of domestic tourism in the Bukhara region by the ARIMA model // Iqtisodiyot va turizm. – 2023. – № 3(11). – P. 140–146.

33. Кадирова Ш.Х., Лустина Т.Н. Модели монетизации и структура доходов онлайн-турплатформ: эмпирический анализ // Сервис plus. – 2026. – Т. 20, № 1. – С. 46–54. – DOI: 10.22412/2413-693X-2026-20-1-46-54.

34. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 16-martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 105-son qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 30-apreldagi «Hududlarda turizm infratuzilmasini jadal rivojlantirish va sohada loyiha boshqaruvi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-161-son qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

36. O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-395-son «Elektron hukumat to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

37. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son «Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

38. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O‘RQ-547-son «Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

39. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. За 8 месяцев Узбекистан посетили 9,1 млн туристов : пресс-релиз [Elektron resurs]. – 2026. – 14 sentabr.

40. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: «Xizmatlar eksporti (xizmatlar turi bo‘yicha, oylik)», qator «Safarlar (turizm)» (1496), 2025–2026 [Elektron resurs].

41. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Turizm bo‘yicha tanlanma kuzatuvlar o‘tkazilmoqda : yangilik [Elektron resurs]. – 2026. – 9 iyun.

42. Expedia, Inc. Study reveals “OTA premium”: travelers who book through OTAs stay longer, spend more during trips : press release (Seattle, 14.03.2018) [Elektron resurs] // Hotel-Online.

43. Phocuswright. Unique online dynamics in China’s travel market : research update [Elektron resurs]. – 2021. – April.

44. Airports Authority of India. DigiYatra overview : information paper IP/20, ICAO APAC AOP/SG/8 [Elektron resurs]. – 2024.

45. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 3-iyuldagi O‘RQ-850-son «Raqobat to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.

46. La Moncloa. Reyes Maroto avanza la creación de una plataforma inteligente de destinos que coloca a España a la vanguardia de la digitalización turística : nota de prensa [Elektron resurs]. – 04.06.2021.

47. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2025. – 26 dekabr.

48. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning O‘zbekiston turizm sohasi xodimlariga tabrigi [Elektron resurs] // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. – 2026. – 27 sentabr.

49. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyuldagi O‘RQ-549-son «Turizm to‘g‘risida»gi Qonuni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi.